

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIIYALAR VAZIRLIGI**

# FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

## “TASDIQLAYMAN”

## Farg`ona davlat universiteti rektori

B.Shermuhammadov

“ ” 2023

# **5111100-musiqa ta`limi yo`nalishi uchun mutahassislik fanlararo YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI DASTURI**

4-KURS

Bilim sohasi:	100000-gumanitar
Ta`lim sohasi :	110000-pedagogika
Ta`lim yo`nalishi:	5111100-musiqa ta`limi

Farg`ona 2023

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida NIZOM” (hozirga qadar mazkur Nizomga bir necha bor o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, 2018-yil 7-noyabrdagi 26-sonli buyrug‘iga binoan so‘ngi o‘zgarish bo‘lgan) ga asosan ishlab chiqildi.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasи bo‘lib, dastur 5111100-Musiqa ta’limi bo‘yicha 2022-yil 27-avgustdagи 1-yig‘ilishida muhokama qilingan hamda San’atshunoslik fakultetining 2022-yil 29-avgustdagи Kengashida ma’qullangan. Universitet kengashining 2022-yil 30-avgustdagи 1-sonli yig‘ilishida tasdiqlangan.

### **Tuzuvchilar:**

D.T.Namozova Farg‘ona davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti  
“Musiqa ta’limi” kafedra mudiri

A.N.Sultanov Farg‘ona davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti  
“Musiqa ta’limi” kafedrasи o‘qituvchisi

### **Taqrizchilar:**

G`M.Najmetdinov Qo’qon davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

Sh.Sotiboldiyev Farg‘ona davlat universiteti “San’atshunoslik” fakulteti dekanining o’quv ishlari bo‘yicha o’rinbosari

Farg‘na davlat universiteti Kengashining 2022-yil “\_\_\_” \_\_\_\_ dagi  
“\_\_\_” – sonli qarori bilan tasdiqlangan.

“San’atshunoslik” fakultetining 2022-yil “\_\_\_” \_\_\_\_ dagi “\_\_\_” – sonli qarori bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

## **KIRISH**

Mazkur dastur Musiqiy ta’lim va madaniyat kafedrasi bo‘lib, dastur 5111100-Musiqqa ta’limi yo‘nalishi bitiruvchilarining to’rt yil mobaynida ixtisoslik fanlarini o‘qib o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan Yakuniy Davlat Attestatsiyasi sinovlari bo‘yicha ishlab chiqilgan.

2022/2023 o‘quv yilida bitiruvchilarda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustda 744-son bilan tasdiqlangan o‘quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘tkaziladi.

### **YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI o‘tkaziladigan fanlar tarkibi:**

1. Musiqa nazariyasi.
2. Musiqa o’qitish metodikasi.
3. O’zbek xalq musiqa ijodi.
4. Musiqa tarixi.
5. Musiqa o’qitish texnologiyalari va loyihalash.

#### **1. Musiqa nazariyasi fanining mazmuni**

Talabalarning musiqiy bilim, ko’nikma - malakalarini egallashlarida fan boyicha o‘tkaziladigan to’garaklarning axamiyati katta.

Talabalarni musiqiy dunyoqarashini shakllantirish, boyitish, ularning musiqiy tafakkurini rivojlantirish, musiqani idrok qilishni shakllantirish, badiiy didini o’stirish; musiqa ifodasi tarkibiy qismlari soxasi bbyicha bilimlar berib, musiqiy asarni o’rganishda uning mazmunini to’rqi ochishga yordam berishdir.

- talabalar asosiy ifoda vositalarini tushunishlari uchun ularga kerakli malaka va bilimlarni berish;
- talabalarning estetik didlarini to’g’ri yo‘naltirish;
- talabalarni kompozitorlik ijodining muhim masalalari va nazariy musiqashunoslikning asosiy muammolari bilan yaqindan tanishtirish hamda musiqaviy til tizimi va garmonianing unda egallagan o’rni haqida aniq tushunchalar berish;
- musiqa asar shaklining tuzilishini asosiy qonunlari bilan tashnishtirish, xar tipdagi shaklni taxlil qilish uchun musiqaning asosiy elementlari, musiqiy rivoji printsiplari, shaklining qismlarni funktsiyasi mavzularning bilimlari bo‘yicha ko’nikma va malakalarni shakllantirish.

Ushbu o'quv fanni ýzlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-Turli hil major va minor gammalar, kvarta – kvinta doirasi, intervallar,akkordlar, xalq ladlari, transpozitsiya, tonnalliklar poqonadoshligi, xromatizm, xromatik gamma, modulyatsiya va oqishma, musiqa bezaklari mavzular bo'yicha usullarni, quydagi ayrim elementlari; garmoniyani asosiy qonun qoidalarni,akkordlar irodaviy imkoniyatlarini, stilistik hususiyatlarini bilishlari, musiqa asarlarini garmonik tahlil usullari: musiqa shaklning eng muhim asoslari, musiqani asosiy elementlarining shakl yaratuvchi harakati; shaklning qismlarga bo'linishi; shaklning qismlari funktsiyasi; musiqa rivojlantirish printsiplari; alohida qismlarini funktsiyalari; bayon etish turlari va uslublarning; har bir tipdagi shaklning tuzilishi qonunlarini bilish kerak.

### **Musiqa nazariyasi fanidan savollar**

1. Musiqiy tovush.
2. Musiqiy tizim.
3. Temperatsiya.Nota yozuvi
4. Musiqiy tovush va uning xususiyatlari
5. Tovushqator. Pog'onalar
6. Oktavali tizim. Diapazon.
7. Registr.Temperatsiyalangan soz.
8. Hosila pog'onalar.
9. Alteratsiya belgilari.Tovushlar engarmonizmi
10. Tovushlarning harfiy sistemasi. Pauzalar
11. Tovush cho'zimlari.
12. Cho'zimlarni uzaytiruvchi belgilar.
13. Nota yozuvini qisqartirish belgilari
14. Metr. Takt. O'lchov
15. Oddiy taktlarda cho'zimlarning guruhlanishi
16. Murakkab metrlar.
17. Ritm. Sinkopa. Cho'zimlarning erkin ravishda bo'linishi
18. Temp. Metronom
19. Lad. Turg'unlik va noturg'unlik
20. Oktavali lad pog'onalarining maxsus nomi.
21. Major va minor turlari. Tetraxordlar
22. Tonallik. Kvinta davrasi
23. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar
24. Xalq musiqasining ladlari
25. Melodik ladlar
26. Tabiiy ladlar. Pentatonika.
27. Ikkilanma garmonik major va minor
28. Sun'iy ladlar
29. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori
30. Diatonik intervallar

31. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonizmi
32. Intervallarning aylanishi
33. Tabiiy major va minor intervallari
34. Xarakterli intervallar
35. Intervallarning yechilishi
36. Akkord. Akkord turlari
37. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari
38. Major va minor uchtovushliklari
39. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari
40. Dominantseptakkord
41. Yetakchi septakkord
42. Subdominantseptakkord
43. Xromatizm tushunchasi
44. Xromatik gammalarning yozilishi
45. laddagi alteratsiya
46. Og‘ishma.
47. Modulatsiya.
48. Taqqoslama.
49. Tonalliklar pog‘onadoshligi
50. Kuy.
51. kuy harakati turlari.
52. sekvensiya
53. Tuzilma.
54. Sezura.
55. Davriya.
56. Jumla.
57. Kadensiya.
58. Ibora.
59. Motiv
60. Transpozitsiya.
61. Partitura.
62. Partiya
63. Musiqa bezaklari: forshlag, mordent, gruppetto, trel.
64. Garmoniya haqida tushuncha
65. Musiqiy faktura
66. Asosiy uchtovushliklar funksional tizimi
67. Asosiy garmonik davralar
68. Major va minorning to‘liq funksional tizimi
69. Lad funksiyasi
70. Asosiy uchtovushliklarning qo‘silishi
71. Davriya.
72. Jumla.
73. Kadensiyalar
74. Kvartsekstakkordlar
75. Davriya shaklidagi kuyni garmoniyalash
76. Kuyni garmoniyalashtirish qoidalari

77. Basni garmoniyalash qoidalari
78. Kadans kvartsekstakkordi
79. Asosiy uchtovushliklar sekstakkordlari
80. O'tkinchi kvartsekstakkordlar
81. Yordamchi kvartsekstakkordlar
82. Septakkord turlari
83. Bosh septakkordlar
84. Septakkordlar aylanmalar
85. Akkordning tuzilishi. Uning qo'sh funksionalligi
86. Dominantseptakkordning tayyorlanishi
87. Akkordlarning qo'shilishi
88. Akkordsiz tovushlar haqida tushunchalar
89. Akkordsiz tovushlarning xilma-xil turlari
90. II pog'ona sekstakkordi va uchtovushligi
91. Akkordlarning juftlanishi va tuzilishi
92. II pog'ona sekstakkordining tayyorlanishi
93. II pog'ona sekstakkordining dominanta garmoniyalari.
94. Kadans kvartsekstakordi bilan qo'shilishi
95. II pog'ona uchtovushligi va sekstakkordi qurshovidagi o'tkinchi tonika
96. VI pog'ona uchtovushligi
97. Bo'lingan kadensiya
98. Subdominantseptakkord (SII<sub>7</sub>) va uning aylanmalar
99. Subdominantseptakkordning tayyorlanishi va yechilishi
100. Subdominantseptakkordning D<sub>7</sub> bilan qo'shilishi
101. Garmonik majorda subdominanta guruhi akkordlari
102. Yetakchi septakkord (DVII<sub>7</sub>)
103. Yetakchi septakkordning tayyorlanishi
104. DVII<sub>7</sub>ning ichki funksional yechilishi
105. Subdominantseptakkordning yetakchi septakkordlarga o'tishi

## 2.MUSIQA O'QITISH METODIKASI

### Fanning mazmuni

Fanni o`qitishdan maqsad: Fanni o`qitishdan maqsadi - musiqiy ta`lim yo`nalishi talabalarini musiqa madaniyati o`qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlaydi. Metodika ta`lim – tarbiya jarayonida o`qituvchining o`quvchilar bilan ishslash usullarining mazmunini anglatdi. Musiqa o`qitish metodikasi o`qituvchisidan istedod, qobilyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo`lishini talab etadi.

Fanning vazifasi: Fanning vazifalari - musiqa ta`limi va tarbiyasining mazmuni, tashkil qilinishi, turli shakllari va metodlari haqida asosiy ma`lumotlar berish. Musiqa ta`limi va tarbiyasi sohasidagi ilg`or tajribalarni umumlashtirish.

Darsdan tashqari musiqiy pedagogik amaliyot bo'yicha metodik adabiyotlarni mustaqil o'rganishga tayyorlash.

Fanni o`zlashtirishga qo`yiladigan talablar Davlat ta`lim standartidagi malakaviy tavsifga muvofiq ishlab chiqiladi va quyidagicha bayon etiladi.

- "Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va muktab repertuari" fanni o`zlashtirish jarayonida amalga oshiradigan masalalar doirasida bakalavr "Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va martab repertuari" o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr. Musiqa o'qitish metodika va muktab repertuari fanini tushunchasining mohiyati;

- didaktika va musiqa o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari; muktab repertuarining o'quvchilar musiqa madaniyatining shakllanishidagi o'rni to'g'risida bilishi kerak.

- umumiy o'rta ta'lim musiqa ta'limi mazmuni (boshlang'ich va o'rta ta'lim);
- musiqa o'qitish printsiplari;
- musiqa o'qitish metodlari va texnologiyalari;
- musiqa darslari tiplari;
- musiqiy asarlarni o'qish va ijro etish metodlari;
- musiqa o'qitishning zamonaviy texnologiyalari;
- musiqa o'qituvchisi shaxsiga qo'yiladigan talablar;
- jamoa bo'lib kuylashni o'rgatish metodlari.
- musiqiy ritmik faoliyat;
- o'quvchilarda ijrochilik va ijodkorlik malakalarini rivojlantirish; musiqiy tarbiya asoslari;

muktab repertuari mazmunini bilishi, ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

musiqa darslarining barcha shakllarini amalda qo'llash;

- har bir sinfda o'quvchilarning yoshiga mos ravishda musiqa o'qitish metodlarini va usullarini tanlash;
- o'quvchilarning bilimi va ijrochilik malakalarini baholash;
- musiqa darslarida tarbiyaviy ishlarni olib borish;

muktab repertuariga kirgan musiqa asarlarini o'rgatish ko'nikmalariga malakalarga ega

bo'lishi kerak.

### **Musiqa o'qitish metodikasi fanidan savollar**

1.Umumta`lim muktablari musiqa madaniyati darslarida musiqa san`ati tarixini o'rgatish.

2. Musiqa darslarida pedagogik texnologiyalar.

3. Yuqori sinf o'quvchilarida musiqa tinglash madaniyatini o'stirish.

4. Musiqa madaniyati darslarida milliy gurur va milliy iftixon tarbiyasi.

5. Umum ta'lim muktablari musiqa darslarida sharq musiqiy olimlari ijodini o'rganish orqali o'quvchi yoshlarni musiqiy tafakkurini shakllantirish.

6. Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish.
7. Yuqori sinf o'quvchilarining musiqiy - nazariy bilimlarini kompyuter texnologiyasi orqali o'rgatishning zamonaviy usullari.
8. Musiqa darslarida o'quvchilarda o'zbek musiqasining yirik namoyondalari ijodini o`rganish orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish.
9. Umum ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida musiqa faoliyati turlarini uzviy bog'liqligi.
10. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni musiqa san'ati mashg'ulotlari orqali o'quvchilarni musiqiy qiziqishini oshirish yo'llari.
11. O'rta yoshdagi o'quvchilarni qo'shiq kuylash vositasida estetik tarbiyalash.
12. Musiqa ta'limida noan'anaviy darslarda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash usullari.
13. Kichik yoshdagagi muktab o'quvchilarda musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirish.
14. Musiqiy ta'lim davlat ta'lim standartlari asosida o`qitish orqali takomillashtirish masalalari.
15. Qo'shiq o'rgatish orqali o'quvchilarda chin insoniy fazilatlarni tarkib to'ptirish.
16. Umumta'lim maktablarida musiqa nazariyasini o'qitish metodikasi.
17. O'quvchilarga xalq musiqa ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyat.
18. Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining nazariy bilimlarini oshirish.
19. Umumta'lim maktablarida musiqa to'garaklari tuzish orqali o'quvchilar iqtidorini shakllantirish.
20. O'rta maktablarida musiqa fanini o'qitishda boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
21. O'quvchilarni musiqaga muxabbat ruxida tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari.
22. O'quvchilarni musiqa merosi va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashning ahamiyati.
23. Boshlang'ich sinflarda milliy kuy – qo'shiqlar kuylashni shakllantirish.
24. Maktablarda yosh iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash orqali ularni kasbga yo'naltirish.
25. Musiqaning madaniy hayotimizda tutgan o'rni.
26. Vokal-xor malakalarining turlari.
27. Musiqa darsining strukturasi.
28. Musiqa darsida ko'rgazmalilik printsipi.
29. Musiqa o'qitish metodlarining maqsad va vazifalari.
30. Musiqa o'qitish metodlari va ularning turlari.
31. Musiqa tinglab asarlarni taxlil qilish..
32. Umumta'lim maktablari musiqa darslarida o'zbek milliy cholg'u sozlarini ijro etishni o'rgatishning uslublari va yo'llari.
33. O'quvchilarga xalq musiqa ijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati.
34. Musiqa o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari.

35. Musiqaning madaniy hayotimizda tutgan o’rni.
36. Musiqa o’qituvchisining ma’naviy va axloqiy qiyofasi unga qo’yilgan talablar.
37. Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli.
38. Shaxsni tarbiyalshda musiqa qanday ahamiyatga ega?
39. Davlat ta’lim standartlarining maqsadi.
40. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning vazifasi.
41. Umumdidaktik prinsiplarning mohiyati.
42. Musiqa darslarida 1-2 prinsiplaridan qanday foydalанилди.
43. Musiqa o’qitish metodlarining maqsad vazifalari.
44. Musiqa o’qitish metodlari va ularning turlari.
45. Musiqa o’qitishning xususiy metodlari va ularning turlari.
46. Vokal-xor malakalarining turlari.
47. Musiqa darsida vokal-xor malakalarining roli.
48. Ashulachilik apparatining tuzilishi va ovoz hosil qilish.
49. Maktabda musiqa darsining roli.
50. Musiqa tinglab asarlarni tahlil qilish.
51. Musiqa darslarini o’qitishning ta’lim standarti.
52. Birinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va metodikasi.
53. Birinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari.
54. Musiqa darslarida musiqa tinglash va tahlil qilish.
55. Ikkinci sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va metodikasi.
56. Ikkinci sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari.
57. Musiqa darslarida ko’rgazmali qurollar tayyorlash va uning metodik ahamiyati.
58. Uchinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari.
59. Uchinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va metodikasi.
60. Uchinchi sinfda dars mavzulari va ularni o’quvchilar yoshi va qiziqishiga mosligi.
61. To’rtinchi sinfda musiqa darsining o’ziga xosligi.
62. Besinchi sinf o’quvchilarining psixologik-fiziologik xususiyatlari.
63. Oltinchi sinfda musiqa o’qitishning maqsadi va metodikasi.
64. Yettinchi sinf oquvchilarini diqqatini qo’shiqqa jalb qilish uslublari.
65. Musiqa savodining mazmuni.
66. Musiqa tinglash madaniyatini shakllantirish.
67. Musiqa tinglash metodlari.
68. Boshlang’ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish.
69. «Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasini» tushunchalari ahamiyati.
70. Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasini fani mazmuni va maqsadi.
71. Musiqa san`ti va uni xususiyatlari.

72. Shaxsni shakllantirishda musiqaning roli.
73. Musiqiy ta`limning maqsad, vazifalari va mazmuni.
74. Musiqa ta`limni ijodiy faoliyatlarini shakllar va turlari.
75. Musiqa tinglash madaniyati, musiqa ijrochiligi, musiqa bilishlari,
76. Musiqa - ijodiy malaa va ko`nikmalari.
77. Musiqa darslarida umumdidaktik printsiplar.
78. Musiqa pedagogika printsiplari.
79. Musiqa o`qitish metodlarining.
80. Musiqiy ta`lim va tarbiyasining asosiy metodlari va texnologiyalari.
81. Musiqa madaniyat darslarida har bir metodni amalga oshirish yo`llari.
82. Musiqa asarni tinglash tashkil etish texnologiyasi.
83. Vokal – ijrochiligi faoliyatini xarakteristikasi.
84. Bolalar ovozni va uning rivjlantirish bosqichlari.
85. Vokal ijrochiligi rivojlantirish vazifalari: boshlang`ich sinflar, o`rta sinflar.
86. Vokal ijrochiligidan malaka va ko`nikmalarni shakllantirish metodikasi.
87. Musiqiy-ritmik faoliyatlarini shakllantirish metodikasi.
88. Musiqa o`qitish metodlari
89. Musiqa asarni tinglash tashkil etish texnologiyasi.
90. Vokal – ijrochiligi faoliyatini xarakteristikasi.
91. Bolalar ovozni va uning rivjlantirish bosqichlari.
92. Vokal ijrochiligi rivojlantirish vazifalari: boshlang`ich sinflar, o`rta sinflar.
93. Musiqiy-ritmik faoliyatlarini shakllantirish metodikasi.
94. 1 sinf o`kuvchilarining musiqa -pedagogik xususiyatlari.

### **3. “O’zbek xalq musiqa ijodi” fanining mazmuni**

Mazkur kursda talabalarni an`analarga boy va badiiy etuk xalq musiqa ijodi namunalaridan baxramand etish hamda shu asosda ularda o’tkir did yuqori badiiy saviya va nafis tuyg’ularni shakllantirishdan iborat. Ko’p asrlar davomida yashab kelgan avlod – ajdodlarimiz ma’naviyatining, barkamol ruhiyatining sadolaridagi in’ikosi bo’lgan milliy kuy, qo’shiqlarimiz yosh avlod qalbidan o’rin olarkan, ularni o’z vataniga, xalqiga sadoqatli va mehr – muruvvatli bo’lishga, azaliy qadriyatlarimiz va o’ziga xos betakror an`analarimizni e’zozlashga, ona yurt merosining bugungi kundagi haqqoniy vorislari bo’lishga, demakki, milliy istiqloliyat zaruratini teran his etish xaqidagi umumiyligi ma’lumotlarni o`z ichiga oladi.

Fanning **vazifikasi**: qo’shiqlari haqida tushuncha berish. Mehnat qo’shiqlari, mavsum marosim va urf-odat qo’shiqlari, lirik qo’shiqlari, termalar.

Xalq qo’shiqchiligi namunalari ijrosi bilan amaliy tanishish:

- talabalarning milliy musiqiy ma’naviyatimiz haqidagi bilim darajasini kengaytirish, repertuarini boyitish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog`lash;
- talabalarning milliy an`analarga bo’lgan qiziqishi va xurmatini oshirish;
- o’zbek xalq qo’shiqchiligiga xos, nola, qochirimlarni maromiga etkazib, kuylashdan iborat.

**Fanni o’zlashtirishga qo’yiladigan talablar:**

- ommaviy kuylashning tabiat, didaktik tamoyillari va boshqa qoidalarini bilib olish;

- xalq qo'shiqchiligi va maqom repertuarlari bilan bevosita tanishish va ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lish;
  - talabalarni umumiy musiqiy qobiliyatlarini o'stirish;
  - kuylash va ishslash jarayonida inson organizmida ro'y beradigan psixo-fiziologik va holatlarni his etish va unga ko'nikma hosil qilish;
  - xonandalik rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish va unga amal qilish.
- Mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalar quyidagi bilimlarni o'zlashtirishi kerak:
- xalq qo'shiqlarining janr tuzilishini **bilishi**;
  - O'tmish xalq qo'shiqchiligi bilimdonlari, olimlarning mavzuga oid risolalarini bilish;
  - xalq qo'shiqchilik lokal yo'llari ijro maktabini tahlil qilish, qo'shiqchilik mакtablari orasidagi farqlarni ajrata olish ko'nikmalarini egallashi kerak;
  - Ijrochilik mакtabi bo'yicha repertuar tanlash, yakka va guruhli jamoada asarlarni o'rgata olish, asarlarni kuylab berish malakalariga ega bo'lishi kerak.

### **"O'zbek xalq musiqa ijodi" fanidav savollar**

1. "O'zbek musiqa madaniyati" fanini o'qitishning maqsad va vazifalari
2. Qo'shiq so'zinining tarjimasi qanday bo'ladi?
3. O'zbek xalqining an'anaviy qo'shiqchilik merosila nechta maxalliy uslublar mavjud va ular qaysilardan iborat?
4. Maqom so'zi qanday so'zdan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
5. 12 maqom shaklidan 6 maqom shakliga kim tamonidan ketirilgan?
6. Xorazm maqomlari kim tamonidan notaga olingan?
7. Xorazmda qanday ashula turkumi mavjud?
8. Yallachilik musiqa uslubi qaysi voxaga mansub?
9. Olti maqomning xar biri nechta yo'nalihsdan iborat?
10. "Soqinomai bayot" qaysi shoirlar g'azallari bilan kuyylanadi?
11. Qo'shiq kimlar tamonidan yaratiladi?
12. Nay musiqa cholg'usi qaysi viloyat qazilma boyliklaridan topilgan?
13. Kasbiy cholg'ular orasida qaysi torli chertma sozi keng qo'llaniladi?
14. Yallachilik san'ati kimlar tamonidan ko'proq ijro etiladi?
15. Sheroziy taxallusi bilan qaysi Xorazm xonandasini ijod qilingan?
16. Musiqaga oid "Kitobim – shifo" asarining muallifi kim?
17. Qo'shiqchilik adabiyotning qaysi turi bilan bog'liq?
18. Ustoz bastakor O. Xatamov qaerda tug'ilgan?
19. O. Xatamov yaratgan asarlardan qaysi asarlarini bilasiz?
20. O'zbek musiqa merosi necha asosiy qatlamni o'z ichiga oladi ?
21. Xalq musiqasiga mansub qatlamga nimalar kiradi ?
22. Kasbiy musiqa siga qaysi shakldagi asarlar kiradi ?
23. "Dutorchi qizlar" ansambli kim tamonidan tuzilgan?
24. Komiljon Otaniyozov qaysi viloyatda yashab ijod qilgan?
25. "Lazgi" ansamblining tashkilotchisi kim?
26. "Bahor" ansamblining birinchi tashkilotchisi kim?
27. "Tanovar raqs" ansamblining birinchi tashkilotchisi kim?
28. Barbat yilning qaysi kunlariga bag'ishlab asarlar yozgan?
29. Barbat nomi bilan qaysi qadimiy musiqa cholg'usi yaratilgan?

- 30.Marv viloyatida tavallud topgan ilk alloma bastakor kim?
- 31.Chet eldan kelgan kapelmeystrlar O'zbekistonda qanday ishlarni amalga oshirdilar ?
- 32.Likopcha janrida kuylanadigan janr?
- 33.Suvora ijrochilarining musoboqasi qanday nomlanadi?
- 34.Dutor so'zi nimani anglatadi?
- 35.Tanbur so'zining nomi qaysi so'zdan olingan?
- 36.“SHashmaqom” ni notaga tushirgan bastakor kim?
- 37.Xorazm suvoralari qaysi shoirlarning she'rlari asosida aytildi?
- 38.Do'mbira sozi necha torli cholg'u asbobi?
- 39.Do'mbira sozi qaysi maxalliy musiqa asbobi?
- 40.“Satang” yallachilik turkumi qaysi viloyatda kuylanadi?
- 41.“Nasrullo 1 – 5”, “Munojot 1 – 4”, “Ajam va taronalar”, “Gulyor SHaxnoz 1 – 5”,
- 42.“Dugox Xusayn 1 – 7” qaysi voxha maqom yo'llariga mansub?
- 43.O'zbekiston ansamblı kim tomonidan tashkil qilindi?
- 44.“Dugox xusayn” qaysi maqom yo'nalishiga kiradi?
- 45.Farg'ona – Toshkent yo'lida qaysi maqomlari bor?
- 46.Mumtoz kuy yoki qo'shiq deganda nimani tushunasiz?
- 47.“Mavrigi” qo'shig'i qaysi viloyatda kuylanadi?
- 48.“Besh qarsoq” xalq folkrol ansamblı qaysi viloyatda?
- 49.“SHalola” ansamblı qaysi viloyatda ijod qiladi?
- 50.“Zebomxon” xalq folklor ansamblı qaysi viloyatda ijod qiladi?
- 51.“Gashtak” xalq folklor ansamblı qaysi viloyatda faoliyat ko'rsatadi?
- 52.Surxandaryo - Qashqdaryo baxshichilik yo'lida foydalanadigan cholg'u asbobi qaysi?
- 53.Kapel'meyster va kompozitor Frantishek Vaplav Leysik qanday ishlarni amalga oshirgan ?
- 54.CHorgohlar qaysi ijro yo'liga mansub?
- 55.N.N.Mironovning tashabbusi bilan qanday ishlarni amalga oshirdi ?
- 56.CHertim yo'li nima?
- 57.CHapandozi Gulyor degani nima?
- 58.Xorazm maqomni kim yaratgan?
- 59.Xorazm maqomlarini notaga olgan olimlar nomini ayting.
- 60.“O'zbek xalq qo'shiqlari” I,II kitoblari nechanchi yilda yozilgan ?
- 61.“O'zbek xalq qo'shiqlari” III kitobi nechanchi yilda yozilgan ?
- 62.Farg'onacha-jonon-2 ashulasi matni muallifi kim?
- 63.Farg'onacha SHaxnox ashulasi qaysi voha maqomlariga mansub
- 64.Ufor nima?
- 65.Ud sozida ochiq torning nomi qanday atalgan?
- 66.Ud pardalari nechta?
- 67.Ud nima?
- 68.5-maqom nomi nima?
- 69.Suporish nima?
- 70.Miyonxat nima?
- 71.Mamurjon Uzoqov ijro etgan qaysi mumtoz qo'shiqlarni bilasiz?

- 72.Maqomlarning yakunlovchi qismi nomini ayting.
- 73.Maqomlarni zamonaviy nota sistemasi asosida yozishda birinchi bo'lib kirishgan etnograf va kompozitor kim?
- 74.Maqom ijrochiligidagi eng muhim vosita nima deb nomlanadi?
- 75.Mo'g'ilchai Segoh ashulasi qanday maqom turkumiga kiritilgan
- 76.Mo'g'ilchai Dugoh ashulasi qaysi maqom turkumiga kiritilgan?
- 77.Kuy shaklining o'rta bo'limi nomini ayting.
- 78.Komil Xorazmiy tuzgan nota yozuvi nomini ayting.
- 79.Qashqarcha nima?
- 80.Qadimgi Xorazmda shifolovchi kuylarning nomi?
- 81.Qadimgi ud sozлari necha torli bo'lган?
- 82.Ko'chabog'i-2 ashulasining matni muallifini ayting
- 83.Ko'chabog'i-1 qo'shig'ining matni muallifi kim?
- 84.Intervallarning eng kichigi nomini ayting.
- 85.Ilmuta'lif so'zining ma'nosini ayting.
- 86.Ikkinchi maqomning nomi nima deb nomlanadi?
- 87.Ibn Sino ta'kidlab o'tgan eng mukammal soz nomini ayting.
- 88.Ibn Sino ta'kidlab o'tgan usullarning birinchisi nomi?
- 89.Ibn Sino musiqa amaliyotida nechta musiqiy usullarni sanab o'tgan?
- 90.Ibn Zayla (vafoti 1044 yil) qo'llagan yangi pardalar nomlanishi uslubini ayting.
- 91.Zebo Pari nima?
- 92.Zarblar urg'u jihatidan necha turga bo'lingan?
- 93.Dunasr nima?
- 94.Dugohlar nechta qismdan iborat?
- 95.Dugoh Xusayinlar qaysi ijro yo'liga mansub?
- 96.Daromad nima?
- 97.Gira ashulasining ma'nosini ayting?
- 98.Gardun so'zning ma'nosini nima?
- 99.Buzruk kuyi qanday maqomlar turkumiga kiritilgan
100. Birinchi pardanining nomi nima?

## **6. Musiqa tarixi fanining mazmuni**

Ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- O'zbek musiqasi tarixi, uning xalqlar musiqa va madaniyatining ajralmas qismi ekanligini; qadimgi, o'rta va yangi asrlarda o'zbek musiqashunosliginng taraqqiyot tarixini; turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyatlarini, cholg'ularini, ular haqida tarixiy ma'lumotlarni; musiqa ilmini rivojlantirishda hissa qo'shgan buyuk allomalarni va ularning ilmiy izlanishlarining mazmunini; maqom va boshqa turkum asarlarni, o'zbek xalq ommaviy janrlari, vokal va cholg'u musiqasi, musiqiy-sanaviy janrlar, taniqli bastakorlar ijodini;

- Chet el musiqa madaniyatining taraqqiyot tarixini, asosiy yo'nalishlar va uslublarni; turli davlatlar musiqiy madaniyatini, milliy kompozitorlik maktablar va

ularning namoyondalarini; atoqli chet el kompozitorlarning ijodiyotini; g'arbiy Evropa va rus kompozitorlarining ijodiyotidagi asosiy janr va shakllarni, mashhur asarlarini; asosiy va qo'shimcha adabiyotlar nomlarini bilish kerak.

- O'zbek musiqasi taraqqiyotidagi turli tarixiy davrlarda musiqa madaniyati xususiyatlarini, cholg'ularini farqlash, bastakor, kompozitorlarning yaratgan merosini o'rganish va ular xaqida gapirib berish; turli janrdagi asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan, nota adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo'llash;

- Chet el musiqadagi asosiy yo'naliшlar va uslublarni, janr va shakllarni, milliy kompozitorlik maktablarga xos xususiyatlar, ifoda vositalarini o'rganish, farqlash va ular xaqida gapirib berish; kompozitorlarning ijod yo'lini jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog'lab unga baho bera olish; asarlarni tinglab nomini, muallifini aniqlash, asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; mashhur musiqiy asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asosiy, qo'shimcha va nota adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lismi kerak.

- Rus musiqasidagi asosiy yo'naliшlar va uslublarni, janr va shakllarni, milliy kompozitorlik maktablarga xos xususiyatlar, ifoda vositalarini o'rganish, farqlash va ular xaqida gapirib berish; kompozitorlarning ijod yo'lini jamiyatning ijtimoiy-siyosiy sharoiti bilan bog'lab unga baho bera olish; asarlarni tinglab nomini, muallifini aniqlash, asar mazmunini yoritib tahlil eta olish; mashhur musiqiy asarlardan ayrim parchalarni ijro eta olish; asosiy, qo'shimcha va nota adabiyotlardan mustaqil foydalanish va amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lismi kerak.

- Musiqa tarixiga oid bilimlar va ko'nikmalarni amaliy musiqiy-pedagogik faoliyatda qo'llash, musiqiy-targ'ibot va kontsert-ma'ruza faoliyatini tashkil qilishda qo'llay olish malakalarga ega bo'lismi kerak.

«Musiqa tarixi» fani 3, 4, 5 semestrlarda o'qitiladi. Ushbu fan Musiqa nazariyasi, Cholg'u ijrochiligi, Vokal ijrochiligi, O'qituvchi nutq madaniyati, Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi, O'zbek mumtoz ko'shiqchiligi, Pedagogika kabi fanlar bilan o'zaro bog'liq.

Musiqa tarixini bilish bo'lg'usi o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Musiqiy - nazariy predmetlar bo'lajak o'qituvchilarga musiqa san'atini bolalarga samarali etkazish yo'larini ularga hayotning musiqiy obrazlarda aks etishini, musiqa ifoda vositalarini amalda qo'lashga yordam beradi.

Musiqa tarixi, asosiy yo'naliшlar uslub va janrlarning rivojlanishi, yirik kompozitorlarning o'ziga xos ijod yo'li haqidagi bilimlar ta'llim oluvchilarning

musiqiy didini tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi.

### **Musiqa tarixi fanidan savollar**

1. Shashmaqom-Sharq xalqlari musiqa madaniyatining qadimiy namunasi.
2. O'quvchilarni ma'naviy –axloqiy tarbiyalashda milliy musiqa folklorining o'rni.
3. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbek musiqa madaniyati.
4. O'zbek xalq cholg'u asboblari.
5. O'zbek folklori.
6. O'zbek cholg'u musiqasi.
7. Musiqiy saxnaviy janrlar.
8. O'zbek kompozitorlari ijodida opera janri.
9. Yudakovning "Maysaraning ishi " operasi.
10. O'zbek kompozitorlari ijodida simfonik janr.
11. Xalq ashulalari va ashula yo'lidagi kuylar.
12. O'zbek musiqasida bastakorlik uslubi.
13. M. Ashrafiy ijodi.
14. XX asr birinchi yarmida o'zbekiston kompozitorlari ijodi.
15. XX asr ikkinchi yarmida kompozitorlar ijodi.
16. I.I. Chaykovskiyning ijodi.
17. S.V. Raxmaninovning ijodi.
18. I.S. Bax ijodi.
19. I.Gaydn ijodi.
20. V. Motsart ijodi.
21. L. Betxoven ijodi.
22. M. I . Glinkaning ijodi.
23. A.S. Dorgomijiskiyning ijodi.
24. M.I. Musogriskiyning ijodi.
25. A.I. Baradinning ijodi.
